

# NEMIS TOPISHMOQLARINING KOMPOZITSION-RITMIK TUZILISHI TASNIFI

*S.S.Xudoyev*

*Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nemis topishmoqlari kompozitsion-ritmik tuzilishiga ko'ra tasniflangan va har bir turga xos topishmoq shakli va mazmuni ilmiy jihatdan sharhlangan.

**Kalit so'zlar.** topishmoqlarining kompozitsion-ritmik tuzilishi, harfli topishmoq, anagramma, palindrom, sharada, aritmogrif, logogrif, kalambur, til topishmog'i, sanoq topishmoq, rasm-topishmoq (rebus).

Nemis topishmoqlarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Til topishmoqlari (Sprachrätsel).
2. Sanoq topishmoqlar (Rechenrätsel).
3. Rasm-topishmoqlar yoki rebuslar (Bilderrätsel, Rebusse).

Eng qadimiy va ko'p sonli topishmoqlar turi sifatida til topishmoqlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ular o'z navbatida, adabiy-mavzuiy topishmoqlarga (Sachrätsel) hamda og'zaki (Worträtsel) topishmoqlarga bo'linadi.

Og'zaki topishmoqlar orasida harfli topishmoqlar (Buchstabenrätsel), anagrammalar (Anagramm), palindromlar (Palindrom), sharadalar (Scharade yoki Silbenrätsel), aritmogriflar (Aritmogriph), sof topishmoqlar, polisemiya yoxud omonimiyaga asoslangan topishmoqlar (Homonymrätsel) ajralib turadi.

**Harfli topishmoqlar (Buchstabenrätsel).** Topishmoq javobi aynan topishmoq matni tarkibida bo'ladi.

*Man sieht es in der Mitte der Nacht,*

*Man träumt nicht davon,*

*Dennoch sieht man es im Schlaf.*

*Am Tag kommt man ganz ohne es aus.*

(Der Buchstabe "C") (<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/075.htm>)

**Anagrammalar (Anagramm).** Anagrammali topishmoq bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq turli ma’nolarga ega bo‘lgan javobli topishmoq bo‘lib, asos vazifasini birinchi javob bajaradi, qolgan javoblar esa asos vazifasida kelgan javobning teskari tarzda o‘qilishi natijasida hosil bo‘ladi. Teskari o‘qish natijasida hosil bo‘lgan yangi ma’noli so‘z topishmoq matnida tasvirlangan bo‘ladi.

*An Drähten oder an Gestängen*

*oder sonstwo mag ich hängen.*

*Zieh mein letztes ich vor mich,*

*stehe oder hänge ich.*

*Hab ich schließlich mich vermengt,*

*stehe ich, ein Teil nur hängt.*

*(Ampel, Lampe, Palme)* (<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/177.htm>)

**Palindromlar (Palindrom).** Ushbu topishmoqlarda ham topishmoq matni xuddi anagrammadagi kabi shakllanadi, faqatgina ob’ektning teskari o‘qilishida ketma-ketlik va tizimlilikka amal qilinadi. Bunda tizimli ravishda teskari o‘qilgan javob asosiy javob bilan mazmunan bir xillikni yoki har xillikni tashkil qilishi mumkin.

*Vorwärts Trauer über Trauer,*

*Rückwärts Glück, doch ohne Dauer.*

*(Beileid, die Lieb)* (<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/077.htm>)

**Sharadalar (Scharade yoki Silbenrätsel).** “Charade” so‘zi keltcha chawr (o‘yin) so‘zidan yoki fransuzcha “gap sotish” so‘zidan kelib chiqq bo‘lishi mumkin. Sharada – bo‘g‘inli jumboq bo‘lib, unda so‘z ma’noli qismlarga bo‘linadi. U Germaniyaga XVIII asrda Fransiyaning Provans shahridan kelgan. Taxminan 1800 yilgacha nasrda charadalar mavjud bo‘lib, undan keyin she’r shaklida ham yozilgan. Gyote, Hauff, Grillparzer, Geyne kabi atoqli shoirlar charadalar bitishgan.

*Mein Erstes ist nicht wenig,*

*Mein Zweites ist nicht schwer,*

*Mein Ganzes lässt dich hoffen,*

*Doch hoffe nicht zu sehr.*

(*viel + leicht = Vielleicht*) (<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/035.htm>)

**Aritmogriflar (Aritmogriph).** Bu topishmoq turida harflar sonlar bilan almashtiriladi va qaysi harf sayisi raqamga mos kelishini topish kerak.

1 2 3 4

*Viele hör'n sehr gern mich heiter,*

*Gerne traurig manche Leut';*

1 3 2 4

*So geändert bring' ich leider*

*Stets den Leuten Traurigkeit.*

*(Lied, Leid)*

(<https://www.janko.at/Raetselgedichte/01/543.htm>)

**Omonimiyaga asoslangan topishmoqlar (Homonymrätsel).** Omonim soʻzlar topishmoqlarda qoʻllash uchun juda qulay. Bunday topishmoqlar omonim soʻzning bir necha mazmunini taʼriflash orqali tuziladi.

*Ich helfe Kisten laden,*

*Doch mach ich auch Scharaden.*

*(Hebel (1. Hebewerkzeug; 2. Johann Peter Hebel))*

(<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/050.htm>)

Bulardan tashqari nemis adabiyotida **Calembour (kalambur)lar ham mavjud.** Bu imlosi bir xil yoki talaffuzi oʻxshash boʻlgan ayrim soʻzlarning koʻp maʼnoliligiga asoslangan soʻzlar ustida oʻyin turidir. Shunday aqliy oʻyin turlaridan yana biri – **Denkrätsel.** U matnli boshqotirma, eng qadimgi boshqotirmalardan biri hisoblanadi. U ming yillar oldin paydo boʻlgan. Kelib chiqishining aniq davri nomaʼlum.

**Dreieckrätsel (Uchburchak topishmoq).** Unda soʻzlar ikkita uchburchak ichidagi harflardan tuzilishi kerak.

**Erotisches Rätsel (Erotik topishmoq)lar** X-XI asrdagi Exeter Book qoʻlyozmasida keltirilgan. Pergamentda 90 ga yaqin qadimgi ingliz topishmoqlari (ehtimol, VIII asrga tegishli) yozilgan va episkop Leofrik tomonidan soborga taqdim qilingan.

*Steif steckt man ihn rein, und schwabbelig zieht man ihn wieder heraus. Rat, was ist das?*

*(Zwieback) (Stock M. Kleine deutsche Rätselkunde, 40)*

**Flechträtsel (To‘quv boshqotirmasi).** So‘zlar kiritilgan va ba‘zi harflari qoplangan, to‘qilgan chiziqlardan iborat. Birinchi marta “Troll” jumboqlar jurnalida chop etilgan.

**Füllrätsel (To‘ldirish).** To‘ldirilishi kerak bo‘lgan so‘zlar o‘rni-o‘rniga qo‘yib chiqiladi. Quyidagi holatda yig‘indisi 22 bo‘lgan raqamlar harflar bilan yozilib, bo‘sh joylar to‘ldirilishi kerak:

*Hamm \_\_\_ leisch, Run \_\_\_ se, N \_\_\_ igall*

*(Stock M. Kleine deutsche Rätselkunde, 48)*

**Literaturrätsel (Badiiy topishmoqlar).** Nemis topishmoqlari o‘rta adabiy nemis tili she‘riyati davridan beri mavjud. Nemis badiiy topishmoqlarining eng yuqori nuqtasi XVIII-XIX asrlarga to‘g‘ri keladi.

**Logogrif (Logogrif).** “Ligogrif” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, jumboq, so‘z tarmog‘i degan ma‘noni anglatadi. Logogrif deganda harfni almashtirish ham tushuniladi (*Haus – Maus*). Yana unda harflarni qo‘shish yoki tishirib qoldirish orqali so‘zga boshqa ma‘no beriladi (*Hafen – Haufen*).

Quyidagi so‘zlarning har birining ikkita harfi tushirib qoldirilsa va qolganlari birgalikda o‘qilsa - undan maqol hosil bo‘ladi:

*Kreis - Niger - Ziegel - Koch - Düne - Pause - Nacht – Möwe - (Keine Regel ohne Ausnahme).* (Stock M. Kleine deutsche Rätselkunde, 86)

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jolles A. Einfache Formen. Legende, Sage, Mythe, Rätsel, Spruch, Kasus, Memorabile, Märchen, Witz. – Tübingen: Niemeyer, 1968.
2. Schitteck C. Die Sprach- und Erkenntnisformen der Rätsel. – Stuttgart: M und P, Verl. für Wiss. und Forschung, 1991.
3. Stock M. Kleine deutsche Rätselkunde. – Gelnhausen: Wagner Verlag, 2013.

4. Tomasek T. Das deutsche Rätsel im Mittelalter. – Tübingen: Niemeyer, 1994.
5. Мельникова Е.В. Виды немецких загадок // Альманах современной науки и образования. – Тамбов: Грамота, 2014. № 8 (86). С. 111-114.
6. Худоев С. ЖАҲОН ФОЛЬКЛОРИДА ТОПИШМОҚ ЖАНРИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.
7. Khudoev S. The Riddle Genre in World Literature and the History of Research on It //INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 13-15.
8. Худоев С. ТОПИШМОҚ МАТНИНИНГ СИНТАКТИК ХУСУСИЯТЛАРИ (OZBEK-NEMIS TOPISHMOQLARI MISOLIDA) Annotatsi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
- 9.Худоев С. NEMIS ADABIYOTSHUNOSLIGIDA TOPISHMOQ JANRINING TADQIQ-U TAVSIFI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.